

OGAHIY IJODIDA SOQIY OBRAZI

Axtamova Mexrbonu Sirojiddin qizi

FarDU Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada soqiy obrazi oshiqning ruhiy holatini o'zgartiruvchi faol kuch sifatida namoyon bo'lib, u faqat may tarqatuvchi emas, balki oshiqning taqdiriga bevosita ta'sir qiluvchi ma'naviy yo'lboshchi sifatida gavdalandirilgan. Soqiyga murojaatlar orqali Ogahiy oshiqning ichki iztirobii va ilohiy zavqqa bo'lgan intilishlarini yanada kuchaytirgan. Shu tariqa, bu g'azallarda soqiy obrazi oshiqning ma'naviy holatini sinovdan o'tkazuvchi, unga ijodiy va ruhiy qudrat bag'ishlovchi markaziy poetik qahramonga aylanganligi tasvirlangan.

Kalit so'zlar: soqiy, poetik qahramon, timsol, ramziy timsol, ma'naviy sharob.

Annotation: In this article, the image of the soqiy is presented as an active force that changes the spiritual state of the lover, and he is embodied not only as a dispenser of may, but also as a spiritual guide who directly influences the fate of the lover. Through appeals to the soqiy, Ogahiy further strengthens the lover's inner suffering and aspirations for divine pleasure. Thus, in these ghazals, the image of the soqiy becomes the central poetic character who tests the spiritual state of the lover and gives him creative and spiritual power.

Key words: soqiy, a poetic hero, a symbol, a symbolic image, a spiritual wine.

Kirish Ogahiyning "Junun dashtida", "Notavon ro'za", "Ogahiy sarfarozi o'lsin", "Qil ravon", "Bu kecha" va "Tutoshdi ishqing oti" kabi g'azallari bir-biridan farq qilsada, ularni birlashtirib turuvchi kuchli ruhiy markaz bor — ishqning jo'shqin olovi va oshiqning ruhiy sarsonligi. Bu g'azallar orqali shoir oshiqlikning turli holatlarini: junun, notavonlik, hijron, iltijo, umid va mastlikni tasvirlaydi. Har bir g'azalida oshiqning o'zini unutishi, ishq dashtida adashishi, bir jilvani sog'inishi va ma'shuqaning bir tabassumiga zorligi yorqin ifodalanadi.

"Junun dashtida" g'azalida oshiq o'zini butunlay sevgida yo'qotgan; "Notavon ro'za"da darddan tinkasi qurigan; "Ogahiy sarfarozi o'lsin"da u ma'shuqaning bir

iltifotini oliy saodat deb biladi; “Qil ravon”da yor kelishini iltijo bilan kutadi; “Bu kecha”da hijron tuning uzunligi va sog‘inch bor; “Tutoshdi ishqing oti”da esa ishqning o‘ti oshiqning qalbini kuydirib, uni mastlik va beqarorlikka soladi.

Bu g‘azallarning barchasida bir obraz alohida porlab turadi — **soqiy**. Ogahiy g‘azalida soqiy shunchaki may beruvchi emas, balki ruhni uyg‘otuvchi, ishq sharobini tutuvchi, oshiqni yuksalishga eltuvchi timsoldir. Soqiy — oshiqning qalbidagi qorong‘ulikni yoritadigan, dardiga malham bo‘ladigan, uni mastlik holatiga — ya’ni ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradigan ramzdir. U tashqi mayxonaga xos obraz emas; tasavvufiy ma’noda u murshid, yo‘lchi, qalbni uyg‘otuvchi nur manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Ogahiy g‘azalarida mastlik — behushlik emas, balki haqiqatni chuqur his etish va ruhiy uyg‘onish holatidir. Soqiy tutgan “may” esa qalbni poklaydigan, oshiqqa quvvat bag‘ishlaydigan ma’naviy sharobdir. Shoir oshqlikni og‘ir dard emas, balki odamni yuksaltiradigan ilohiy zavq sifatida tasvirlaydi.

Shu bois, ushbu g‘azallarni birlashtiruvchi bosh g‘oya — ishqning olovi oshiqni kuydirsa ham, aynan shu olov uni poklab, haqiqatga yaqinlashtiradi, soqiy esa bu yo‘ldagi ruhiy yo‘lboshchidir.

G‘azallarni tahlil qilish orqali soqiy obrazini ko‘rib chiqamiz.

1. “Junun dashtida” g‘azali

Bayt:

«Ichursa soqiysi davron agar nokomlig' zahrin,

Er ersang oni shirin angla shahd omiz sharbatdin.»

Bu baytda oshiq o‘zidagi “nokomlig' zahri”dan qutulish uchun soqiydan shirin sharob berishini so‘raydi. Shoirning demoqchisi – dardning achchiqligini faqat soqiy tutgan “shahdli sharob” yumshatishi mumkin. Soqiy – ruhiy davo beruvchi.

2. “Notavon ro‘za” g‘azali

Bayt:

«Qil, ey soqiy karamkim, qildi jismim notavon ro‘za,

Xumori jomi maydin ayladi bag‘rimni qon ro‘za.»

Bu yerda oshiq roʻzaning azobidan holdan toyganini aytib, soqiydan karam va rahm soʻraydi. Roʻza (hijron, intizorlik) uni notavon qilgan, sharobning yoʻqligi koʻnglini qon qilgan. Soqiy – shifo kutilgan najotkor.

3. “Ogahiy sarfarozi oʻlsin” gʻazali

Bayt:

**«Xazoni gʻam aro afsurdaman qish yangʻliq, ey soqiy,
Bahori lutf ila may gullarin ochgʻilki, yoz oʻlsin.»**

Bu baytda oshiq oʻzini “qishday sovuq” holatda deb tasvirlaydi va soqiydan bahor nafasi boʻlishini, yaʼni koʻnglini jonlantirishini soʻraydi. Soqiy – bahor olib keluvchi, koʻngilni uygʻotuvchi.

4. “Qil ravon” gʻazali

Bayt:

**«Soqiy, karam aylab maqsadimni qil hosil,
Boʻlmoq istaram bir tun jurʼa nush jomingʻman.»**

Oshiq soqiydan maqsadini roʻyobga chiqarishni iltimos qiladi. Uning niyati – bir tun boʻlsa ham sharobdan bahramand boʻlish. Baytda soqiy istaklarni ado qiluvchi, yoʻl koʻrsatuvchi timsol sifatida berilgan.

5. “Bu kecha” gʻazali

Bayt:

**«Soqiyo, kelgilki shomi iydi qurbon bu kecha,
Qil jamoling partavin shami shabiston bu kecha.»**

Bu baytda oshiq soqiyini bayram kechasiga qiyoslangan tun sari chaqiradi. U soqiy jamolini nuri bilan tunni yoritishini xohlaydi. Soqiy – nur beruvchi, ziyo taratuvchi sifatida talqin qilinadi.

6. “Tutoshdi ishqing oti” gʻazali

Bayt:

**«Tutoshdi ishqing oti, soqiyo, boshdin ayogʻimga,
Tarahhum ayla butun boʻyla muhlik ehtiroqingʻa.»**

Oshiq ishq olovida boshdan oyoq yonib ketganini aytadi. Soqiydan esa tarahhum, ya'ni rahm-shafqat kutadi. Soqiy — oshiqni halokatli ehtiroqdan qutqaruvchi marhamat sohibi sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy g'azallarida soqiy obrazi an'anaviy tasavvufiy-badiiy ma'nolarni o'zida mujassam etgan ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi. Shoir baytlarda soqiyga murojaat orqali ruhiy poklanish, ilohiy zavq, ma'naviy taskin va yor visoliga eltuvchi ma'rifat mayining timsolini ifoda etadi. Soqiy bu g'azallarda oshiq qalbidagi iztirobni yengillashtiruvchi, ma'naviy "sharbat" ulashuvchi, zavq va ma'rifat manbai sifatida talqin qilinadi. Uning qo'lidan uzatilgan may esa ilohiy haqiqatga yetaklovchi ma'rifiy nur timsoliga aylanadi. Shu bois Ogahiy lirikasida soqiy butun g'azalning ruhiy-mazmuniy markazida turuvchi, oshiqning ichki olamiga musaffolik bag'ishlovchi muhim badiiy obraz sifatida yuksak o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи (каталог). Тошкент, 1986.
2. Ogahiy. Asarlar VI jildlik, I jild G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1971.
3. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy". I jild. T.—1971.
4. ziyonet.uz
5. takakkur.net